

MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGI

Xalikova Nilufar Mirkadirovna

*Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'gatish milliy markazi,
"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" katta o'qituvchisi
nilushkhalik59@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada media va axborot savodxonligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Media, axborot, savodxonlik, axborot texnologiyalari, axborot, kompyuter savodxonligi, kutubxona savodxonligi

Media va axborot savodxonligi – «soyabon», ya’ni bir tushuncha mazmunida ikki ma’no birlashgan atama sifatida YUNESKO tomonidan tavsiya etilgan. Uning mohiyatini anglash uchun har bir tushuncha o’zagini bilish zarur. «Media» atamasi (lotincha - medium, ya’ni vosita, vositachi, usul) turli ko’rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi. Media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy auditoriya o’rtasida axborot almashinuvining texnik vositalari kiradi. Bugungi kunda media atamasidan OAV yoki mass-media tushunchalarining sinonimi sifatida foydalilaniladi. Hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotiga medialarning ta’siri yil sayin oshib borib, ular vositasida insonlar atrof-voqelikni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglamoqda va baholamoqda. Zamonaviy medialarning asosiy jihatlari sirasiga tadqiqotchilar kreativlik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) va innovatsiyalarni kiritmoqda. Mazkur atamaga aynan shunday tavsif www.edu.jobsmarket.ru saytida keltirilgan. Shu bilan birga boshqa manbalarda ham media istilohiga shu tarzdagi tavsiflar berilganini ko’ramiz.

«Media - ommaviy axborot vositalari, ham keng, ham maxsus auditoriyaga mo’ljallangan ko’ngilochar takliflarni tavsiya etuvchi, yangilik, axborot va reklama axborotini tarqatishga yo’naltirilgan ko’p sonli va serqirra funksiyalarni amalga oshiruvchi kommunikatsiya kanallaridir». Aksariyat hollarda mutaxassislar media atamasi o’zagida aynan ushu tavsifni ko’radi. SHunga qaramasdan, mazkur istilohning tor mazmuni ham mavjud. Ayrim tadqiqotchilar mazkur atama mazmunida alohida axborot muhiti sifatida aynan OAVni, boshqalari esa – aniq axborot tashuvchini nazarda tutadi. Kommunikatsiya kanali sifatida medialar sirasiga mutaxassislar bosma nashrlar, elektron OAV, shu jumladan Internet, reklamaning tashqi vositalari va, xatto, pochta tarqatmasini, ya’ni, tovar yoki xizmatlar sotuvchisi va iste’molchi o’rtasidagi hayotmamot zvenosi funksiyasini bajaruvchi barcha omillarni kiritadi”

2. Axborot savodxonligi – axborotni tanlash, baholash, qayta ishslash va uzatish borasidagi ko’nikmalar va malakalar majmuini bildiradi. Ushbu majmuani 1jadvalda ko’rish mumkin. Axborot savodxonligi axborotga egalik, uni baholash va axloqiy qoidalarga rioya qilgan holda foydalanishning muhimligini e’tirof etadi.

Axborot ehtiyojlarini aniqlash va shakllantirish.

Axborotni izlash va unga egalik qilish .

Axborotni baholash .

Axborotni tizimlashtirish .

Axborotdan axloqiy qoidalarga rioya qilgan holda foydalanish .

Axborotni uzatish .

Axborotni qayta ishslash uchun AKT bilan ishslash ko’nikmalaridan foydalanish.

Media savodxonlik – mass-mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo’yicha ko’nikmalar va malakalar majmuini bildiradi. Demokratik jamiyatda medianing roli va funksiyalarini tushunish.

Media o’z funksiyalarini amalga oshirishi mumkin bo’lgan shartsharoitlarni tushunish .

Media kontentini uning funksiyalari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tanqidiy baholash .

Media vosiasida o’z fikrini bayon etish va demokratik jarayonlarda ishtirok etish uchun o’zaro hamkorlik qilish .

Foydalanuvchi kontentini yaratish uchun kerak bo’ladigan ko’nikmalar(shu jumladan, AKT bilan ishslash ko’nikmalari)ni faollashtirish .

Media savodxonlik media funksiyalarini tushunish, mazkur funksiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o’z-o’zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg’u beradi. Media savodxonlik ham, axborot savodxonligi ham yoshlarda media va axborot makonida foydalilanilayotgan texnologiyalardan qat’iy nazar o’zaro hamkorlik qilish ko’nikmalarini ongli ravishda shakllantirish va rivojlantirish bilan bog’liq. Ushbu bir biriga bog’liq bo’lgan sohani turlicha tushuntirib beruvchi ikkita ilmiy maktab mavjud. Birinchi maktab vakillari axborot savodxonligini katta tadqiqotlar sohasi sifatida ko’rishadi. Ikkinci maktab namoyondalari esa axborot savodxonligi media savodxonlikning tarkibida bo’lib, u ancha keng soha ekanligini ilgari suradilar. Ammo YUNESKOning xalqaro ekspertlar guruhi nafaqat media va boshqa axborot xizmatlarining bir biridan farqi, balki ularning o’zaro aloqadorlik nuqtalarini ham aniqlagan.

MAS tarkibini quyidagi asosiy tushunchalar tashkil etadi:

- Media savodxonlik;
- Axborot savodxonligi;
- O’z fikrini erkin bayon etish savodxonligi;

- Kutubxona savodxonligi;
- Yangiliklar savodxonligi;
- Kompyuter savodxonligi;
- Internet-savodxonligi;
- Raqamli texnologiyalar sohasidagi savodxonlik;
- Kinosavodxonlik;
- Elektron o'yinlardan foydalanish savodxonligi;
- Televizion savodxonlik, reklama sohasidagi savodxonlik.

Mazkur tushunchalar o'rtasida bog'liqlik mavjud. Ularning ko'pchiligi turli xil bahslarga sabab bo'lib, u yoki bu foydalanuvchilar hamjamiyatining kasbiy konteksti yoki madaniy amaliyatiga qarab turlicha qo'llanib kelinmoqda. Masalan, jurnalistikada media savodxonlik yuqorida ko'rsatib o'tilgan deyarli barcha tushunchalarni qamrab oladi:

Media savodxonlik;

- O'z fikrini erkin bayon etish;
- Kutubxona savodxonligi;
- YAngiliklar (axborot) savodxonligi;
- Internet-savodxonlik;
- Raqamli texnologiyalar sohasidagi (shu bilan birgalikda kompyuter) savodxonlik (jumladan, elektron o'yinlardan foydalanish savodxonligi);
- Televizion (kino, reklama sohasidagi) savodxonlik. Global miqyosda barcha tashkilotlar mediata'lif (MT) atamasidan foydalanadi. Ko'pchilik tushunchasida u ham media savodxonlik hamda axborot savodxonligini o'z ichiga oladi. Turli platformalar konvergensiysi sharoitida ushbu ikki yondashuv uyg'unligiga intilgan holda YUNESKO MAS atamasini ilgari suradi.

1. MAS bo'lajak jurnalistlarni kelgusida foydalana olishi uchun keng bilimlar bilan qurollantiradi.

2. MAS demokratik jamiyatda media va axborot kanallarining faoliyati haqida muhim bilimlar beradi, media va axborot xizmatlarining funksiyalari doirasidagi faoliyatini baholash uchun zarur bo'ladigan, ushbu funksiyalarni amalga oshirish va asosiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni tushunishni ta'minlaydi.

3. Media va axborot savodxonligiga ega bo'lgan jamiyat erkin, mustaqil va turfa fikrli media va ochiq axborot tizimlarini rivojlantirishni rag'bathlanadir. Jurnalistika sohasida

MASning afzalliklaridan to'la-qonli foydalanish uchun quyidagi shart-sharoitlarni ta'minlash zarur:

1. Media va axborot savodxonligi yaxlit butunlik sifatida qabul qilinishi va o’z mazmunida kompetensiya(bilimlar, ko’nikmalar va malakalar)lar majmuini qamrab olishi;

2. MAS talaba-jurnalistlarni media va axborot kanallari bilan o’zaro hamkorlik qilishi uchun kasbiy savodxonlikni shakllantirishga maqsadli ravishda yo’naltirishi;

3. Bo’lajak jurnalistlar axborotni izlash, saralash, baholash va tarqatish ko’nikmalariga ega bo’lishi;

4. Ayollar va erkaklar, shuningdek, aholining marginal guruhlari, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar, tub aholi yoki kam sonli millatlarning axborotga egalik qilishi uchun bir xil imkoniyatlarni yaratish;

5. MAS jurnalistlar tomonidan halqlar va ularning madaniyatini tushunish, madaniyatlararo muloqotni ijtimoiy hayotning muhim vositasi sifatida qabul qilinishi.

2. O’zbekistonning demokratiya sari taraqqiyotida, fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokining faollashuvida media va axborotning ahamiyati.

OAV va ommaviy kommunikatsiyalar fuqaro o’z fikrini erkin bayon qilishida, hurfikrlikni, madaniyatlararo muloqotni, bag’rikenglikni va mamlakatni boshqarishda mas’uliyatni ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning ahamiyati quyidagi yo’nalishlarda ko’rinadi:

- ommaviy axborot kommunikatsiyalari fuqarolarning bir birlari bilan uzluksiz muloqotlarini amalga oshirishga ko’mak berish;

- xabarlar, g’oyalar va axborotni tarqatish;

- jamiyatning barcha a’zolarini axborotga egalik qilishini ta’minlash, ular o’rtasidagi tengsizlikni hamda shakllanayotgan fuqarolik jamiyatining uch sektori o’rtasidagi tengsizlikni bartaraf etish;

- turli ijtimoiy jarayonlar ishtirokchilari o’rtasida muloqot o’rnatish va ularni demokratiya usullari vositasida ziddiyatlarni bartaraf etishga rag’batlantirish;

- fuqarolarda mamlakat kelajagi uchun mas’uliyat va birlashish hissini shakllantirish, jamiyat o’z-o’zini anglashi uchun turli imkoniyat va vositalarni taqdim etish;

- madaniy o’zligini namoyon qilish hamda millatlar ichida va millatlararo madaniy munosabatlarni o’rnatish uchun mexanizm taklif etish;

- ijtimoiy hayot shaffofligini ta’minlash va davlat hokimiyati organlari faoliyatini nazorat qilish uchun, shuningdek, korrupsiya, lavozimni suiste’mol qilish holatlarini jamoatchilikka oshkor qilish maqsadida kuzatuvchi funksiyasini bajarish;

- demokratlashtirish, modernizatsiyalash jarayonlarini rag’batlantirish va erkin saylovlarni qo’llab –quvvatlash;

- turfa fikrlilik qadriyatlarini hurmat qiluvchi ijtimoiy hamkor funksiyalarini amalga oshirish;

- madaniy meros saqlanishini ta’minlash;

- aholining axborotga egalik qilishini kafolatlash vositasida uchun raqamli uzilishni qisqartirishga ko'maklashish;
 - jamiyatning ijtimoiy xotirasi sifatida(masalan, kutubxonalar) xizmat qilish;
 - kutubxonalarga axborot xizmatlari va o'quv-metodik markazlar funksiyalarini yuklash; bunda barcha axborot resurs turlaridan foydalanishni rag'batlantirish;
 - akademik (universitetlar) kutubxonalar orqali o'qitish va tahsil olish, shuningdek, tele-radiokurslar, masofaviy ta'lifm vositasida tahsil olish (axborot savodxonligi) ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berish;
 - kutubxona foydalanuvchilarini o'qitish;
- Ochiq media- va axborot tizimlari jamiyatni mas'uliyatli davlat boshqaruvi va o'z-o'zini boshqarish bilan ta'minlaydi, shuningdek, demokratiyaning asosiy qadriyatlari bo'lgan oshkorlik, mas'uliyat va fuqarolar faolligini ta'minlashni kafolatlaydi. Media- va axborot tizimlari kuchli fuqarolik jamiyatini quyidagi funksiyalarni amalga oshirish orqali barpo etilishini rag'batlantiradi:
- aholining turli qatlamlari uchun tushunarli, qiziq va zarur bo'lgan axborot va bilimlarni taqdim etish;
 - fuqarolarda demokratiya qadriyatlari va me'yorlariga sodiqlikni va boshqaruvdagagi mas'uliyatni tarbiyalash.

Xulosha:

Media va axborot xizmatlari fuqarolarning kasbiy bilim olishi uchun platforma(zamin) yaratadi. Qator mamlakatlarda mazkur platformadan ochiq va masofaviy ta'lifm olish (open and distance learning — ODL) va uzlusiz kasbiy ta'lifm olish (continuing professional development — CPD) uchun ham foydalaniladi. Axborot savodxonligi borasidagi tadqiqotlarning ko'rsatishicha, texnologik ko'nikmalar yoshlarda kattalarga nisbatan yaxshiroq shakllangan ekan. Bu holat zamonaviy yoshlar texnika yangiliklari bilan bolaligidan boshlab tanishishi, ulardan shaxsiy yoki ijtimoiy maqsadlarda axborotni to'plashi, qayta ishlashi va uzatishda foydalanishi bilan bog'liq ekan. Shunday bo'lsa-da, yoshlar dalillar aniqligi va ishonchlilagini baholashida ma'lum qiyinchiliklarga duch keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axborot texnologiyalari M.Aripov, B. Begalov, Sh. Begimqulov,, M. Mamarajabov. [1]
2. Axborot texnologiyalari A.T. Kenjabloev, B. Sultonov Toshkent-2019[2]
3. Informatika. Informatika. 7-sinf (2008, B.Boltayev, M.Mahkamov, A.Azamatov, S.Rahmonqulova) [3]
4. Informatika. 9-sinf (2011, B.Boltayev, A.Azamatov, A.Asqarov, M.Sodiqov, G.Azamatova)[4]